KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каюмов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIYAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI.....	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI

Boltayeva Nilufar Shavkat qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

E-mail: nkhshavkatovna039@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida monetar siyosat transmissiya mexanizmlarining samaradorligi 2020–2024-yillar dinamikasi misolida tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida foiz stavkalari, kredit, valyuta kursi va kutilmalar kanallari bo'yicha Markaziy bank qarorlarining real sektor hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri empirik ma'lumotlar asosida o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, foiz stavkalari kanali iqtisodiyotga nisbatan sekin uzatilmoqda, tijorat banklarining foiz siyosati esa asosiy stavkadagi o'zgarishlarga cheklangan darajada javob bermoqda. Kredit kanali iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashda muhim omil bo'lsa-da, banklar tizimidagi davlat ulushining yuqoriligi sababli bozor mexanizmlarining to'liq ishlashi cheklangan. Valyuta kursi kanali eng faol transmissiya yo'nalishlaridan biri sifatida tashqi savdo jarayonlari va narxlar barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Kutilmalar kanali esa kommunikatsion siyosatning kuchayishi natijasida faollashib, inflyatsion kutishlarning barqarorlashuviga yordam bermoqda. Umuman olganda, O'zbekistonda monetar transmissiya mexanizmlari izchil shakllanib bormoqda hamda inflyatsion targetlash rejimiga o'tish uchun zarur institutsional sharoitlar yaratilmoqda.

Kalit so'zlar: monetar siyosat, transmissiya mexanizmi, foiz stavkasi kanali, kredit kanali, valyuta kursi, inflyatsion targetlash, Markaziy bank.

Abstract. This article analyzes the effectiveness of monetary policy transmission mechanisms in the Republic of Uzbekistan using the 2020–2024-year dynamics as a basis. The study examines the impact of the Central Bank's decisions through interest rate, credit, exchange rate and expectations channels on the real sector and macroeconomic indicators using empirical data. The findings indicate that the interest rate channel transmits to the economy relatively slowly, as commercial banks' interest-rate policies respond only modestly to changes in the policy rate. The credit channel plays an important role in supporting economic activity; however, the high share of state participation in the banking system limits the full functioning of market mechanisms. The exchange-rate channel is identified as the most active, significantly influencing external trade and price stability. The expectations channel has strengthened in recent years due to enhanced communication policies, contributing to the stabilization of inflation expectations. Overall, monetary transmission mechanisms in Uzbekistan are gradually developing, providing the institutional groundwork for the transition to an inflation-targeting regime.

Key words: monetary policy, transmission mechanism, interest rate channel, credit channel, exchange rate, inflation targeting, Central Bank.

Аннотация. В данной статье проанализирована эффективность механизмов трансмиссии монетарной политики Республики Узбекистан на основе динамики 2020–2024-годов. В рамках исследования изучено влияние решений Центрального банка по процентным ставкам, кредитам, валютному курсу и инфляционным ожиданиям на реальный сектор и макроэкономические показатели с использованием эмпирических данных. Результаты показывают, что канал процентных ставок передаётся в экономику относительно медленно, а политика процентных ставок коммерческих банков ограниченно реагирует на изменения основной ставки. Кредитный канал играет важную роль в поддержке экономической активности, однако высокая доля государства в банковском секторе снижает эффективность рыночных механизмов. Канал валютного курса является наиболее активным и оказывает значительное влияние на внешнеторговые процессы и ценовую стабильность. Канал ожиданий в последние годы усилился благодаря развитию коммуникационной политики, что способствует стабилизации инфляционных ожиданий. В целом механизмы монетарной трансмиссии в Узбекистане постепенно формируются, создавая институциональную основу для перехода к режиму таргетирования инфляции.

Ключевые слова: монетарная политика, механизм трансмиссии, канал процентных ставок, кредитный канал, валютный курс, таргетирование инфляции, Центральный банк.



KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida monetar siyosatning ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda. So'nggi yillarda mamlakat iqtisodiyotida bozor tamoyillarini chuqurlashtirish, valyuta bozorini liberallashtirish, foiz siyosatini erkinlashtirish hamda moliyaviy institutlarning mustaqilligini oshirishga qaratilgan qarorlar pul–kredit siyosatining yangi bosqichini boshlab berdi. Ushbu jarayonda Markaziy bankning asosiy vazifasi sifatida narxlar barqarorligini ta'minlash va inflyatsiyani pasaytirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

2020–2024-yillarda mamlakat iqtisodiyoti pandemiya oqibatlari, tashqi savdo tarkibidagi nomutanosibliklar, global inflyatsion bosim hamda geoiqtisodiy noaniqliklar sharoitida shakllangan bo'lsa-da, Markaziy bank ehtiyotkor, ammo moslashuvchan pul–kredit siyosatini olib borish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga erishdi. Ushbu davrda monetar siyosatning asosiy yo'nalishlari sifatida foiz koridorini takomillashtirish, ochiq bozor operatsiyalarini kengaytirish, pul massasi dinamikasini muvozanatlashtirish va kommunikatsion siyosatni kuchaytirish ustuvor ahamiyat kasb etdi.

Monetar siyosatning iqtisodiyotga ta'siri transmissiya mexanizmlari orqali amalga oshirilishi bois, ushbu mexanizmlarning qay darajada barqaror va samarali faoliyat ko'rsatayotgani milliy iqtisodiy barqarorlikning muhim omillaridan biri sanaladi. Xalqaro tajriba foiz stavkalari, kredit, valyuta kursi va kutilmalar kanallarining to'liq shakllanishi monetar siyosat choralari real sektorga ta'sirini kuchaytirishini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoitida mazkur kanallar izchil shakllanib borayotgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi bo'yicha ma'lum farqlar kuzatiladi.

Shu munosabat bilan ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020–2024-yillardagi faoliyati misolida monetar siyosat transmissiya mexanizmlarining holati, ishlash xususiyatlari va iqtisodiyotga ta'siri tizimli ravishda tahlil qilinadi. Empirik ma'lumotlar asosida ushbu mexanizmlarning samaradorligi baholanadi hamda inflyatsion targetlash tizimini to'liq joriy etish uchun zarur shartlar aniqlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida monetar siyosatning ilmiy–nazariy asoslarini shakllantirish, Markaziy bank faoliyatini modernizatsiya qilish va bozor tamoyillariga asoslangan iqtisodiy boshqaruv tizimini rivojlantirish so'nggi yillarda eng dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mustaqillikdan keyingi dastlabki davrda davlatning pul–kredit siyosati asosan makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, milliy valyutani mustahkamlash va inflyatsiyani pasaytirishga yo'naltirilgan edi (Vahobov, 2016).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2017-yil 2-sentyabrda qabul qilingan PF–5177-sonli "Valyuta siyosatini liberallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni¹ mamlakat monetar tizimida tub islohotlarga asos bo'ldi. Mazkur farmon orqali milliy valyuta — so'mning erkin ayirboshlash mexanizmi joriy qilindi va Markaziy bank faoliyati bozor tamoyillariga mos ravishda qayta yo'naltirildi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 2017). Ushbu o'zgarishlar Markaziy bankning asosiy maqsadlari qatorida narxlar barqarorligini ta'minlash, inflyatsion targetlash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish hamda pul–kredit siyosatini prognozlash asosida olib borishni belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan har yili e'lon qilinadigan "Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari" hujjatlarida 2020-yildan boshlab inflyatsion targetlash tizimiga o'tishning bosqichlari, zarur institutsional sharoitlari va metodologik asoslari belgilab borilmoqda (CBU, 2023). Hujjatlarda 2025-yilga kelib inflyatsiya darajasini 5 foizgacha pasaytirish Markaziy bankning ustuvor maqsadi sifatida qayd etilgan.

Milliy iqtisodiyot bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda O'zbekiston olimlari — A. Vahobov, Sh. Zoyirov, N. Saidova, D. Jalolov, B. Abdurahmonov va X. Xakimov monetar siyosatning iqtisodiy barqarorlikdagi o'rnini turli jihatlarida tahlil qilgan.

Masalan, Vahobov (2018) o'z tadqiqotlarida Markaziy bank tomonidan qo'llanilayotgan foiz siyosati, qayta moliyalash stavkasi va kredit hajmlarining iqtisodiyotdagi investitsion faollikka ta'sirini o'rgangan hamda monetar mexanizmlarning real sektor bilan integratsiyasi hali to'liq shakllanmaganini ta'kidlaydi.

Zoyirov (2020) esa tijorat banklari likvidlik bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi, Markaziy bankning operatsion instrumentlari samaradorligini oshirish zarurligi va pul bozorida raqobatning kuchaytirilishi iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun muhim omillar ekanini asoslaydi.

Saidova (2021) o'z ilmiy izlanishlarida inflyatsion targetlash siyosatini joriy etish jarayonida fiskal va monetar siyosat uyg'unligini ta'minlashning dolzarbligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, davlat byudjeti defitsitining yuqori darajada bo'lishi monetar instrumentlarning ta'sirini cheklashi mumkin. Shuning uchun davlat qarzini optimallashtirish, byudjet xarajatlarini samarali rejalashtirish va moliya bozori infratuzilmasini rivojlantirish monetar siyosatning samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

¹ <https://www.lex.uz/uz/docs/-3326421>



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasida monetar siyosat transmissiya mexanizmlarining samaradorligi 2020–2024-yillar kesimida tahlil qilindi. Metodologiya quyidagi ilmiy yondashuvlarga asoslandi:

Statistik tahlil. Markaziy bank, Statistika qo'mitasi va xalqaro tashkilotlarning ochiq ma'lumotlari asosida asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar — foiz stavkalari, kredit hajmi, pul massasi, valyuta kursi va inflyatsiya dinamikasi chuqur o'rganildi.

Transmissiya kanallarini baholash. Foiz stavkalari, kredit, valyuta kursi va kutilmalar kanallari bo'yicha indikatorlar solishtirilib, monetar qarorlarning real sektorga o'tish darajasi aniqlangan.

Tahliliy umumlashtirish. Statistik natijalar asosida transmissiya mexanizmlarining kuchli va zaif jihatlari baholanib, pul–kredit siyosatining iqtisodiyotga uzatilish samaradorligi bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pandemiya yillarida yuzaga kelgan global iqtisodiy beqarorlik sharoitida Markaziy bank iqtisodiyotdagi talab va taklif muvozanatini saqlash maqsadida ehtiyotkor pul–kredit siyosatini amalga oshirdi. 2020-yilda qayta moliyalash stavkasi 15 foiz etib belgilangan bo'lsa, 2023-yil davomida ushbu ko'rsatkich 14 foiz darajasida saqlanib, iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash bilan birga inflyatsion kutilmalarni pasaytirishga xizmat qildi (CBU, 2024). Pul massasining (M2) hajmi 2020-yildagi 114,7 trillion so'mdan 2024-yilda 260 trillion so'mdan oshgani iqtisodiyotda pul taklifining izchil o'sishi, kreditlash hajmlarining kengayishi va bank tizimining moliyaviy vositachilikdagi o'rnining mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasi 2020–2022-yillarda ikki raqamli diapazonda saqlanib qolgan bo'lsa-da, 2023-yilda 9,5 foizgacha pasayishi Markaziy bankning qat'iy pul–kredit yondashuvi va fiskal–monetar uyg'unlikning kuchayganidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda monetar siyosatning asosiy yo'nalishlari qatorida inflyatsiyani barqaror past darajada ushlab turish, iqtisodiyotda real foiz stavkasining ijobiyligiga erishish orqali milliy valyutada jamg'arish rag'batlarini oshirish, likvidlikni tartibga solish mexanizmlari va foiz koridorini takomillashtirish orqali banklararo bozor faoliyatini kengaytirish ustuvor ahamiyat kasb etdi. CBU ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalari hajmini 40 foizdan ortiq oshirgan bo'lib, bu moliya bozorida qisqa muddatli likvidlik tebranishlarini yumshatib, foiz stavkalari barqarorligini ta'minlashga xizmat qilgan. Inflyatsion targetlash tizimiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida kommunikatsion siyosatning kuchaytirilishi natijasida aholi va biznes sub'yektlarining iqtisodiy kutilmalarni shakllantirish jarayoniga oid ma'lumotlardan xabardorlik darajasi sezilarli oshdi.

2020–2024-yillar makroiqtisodiy dinamikasi O'zbekiston iqtisodiyotining o'rtacha 6 foiz atrofida barqaror o'sib borganini ko'rsatadi. Ushbu o'sish investitsiya hajmlarining ortishi, xususiy sektor faolligining kengayishi va eksport salohiyatining mustahkamlanishi bilan izohlanadi. Inflyatsiya darajasining bosqichma-bosqich pasayib borishi esa monetar siyosat choralarining maqsadli, izchil va prognozga asoslangan tarzda olib borilayotganini tasdiqlaydi.

Amaldagi monetar siyosatni baholash natijalari Markaziy bankning pul–kredit instrumentlari orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, transmissiya mexanizmining ayrim kanallari, xususan foiz va kredit kanallari samaradorligining to'liq shakllanmaganligi kuzatiladi. Tijorat banklarining kredit siyosati va bozor foiz stavkalari Markaziy bankning asosiy stavkadagi o'zgarishlariga nisbatan sekin javob berayotganini inobatga olganda, monetar siyosatning real sektor darajasiga yetib borishini kuchaytirish uchun banklararo raqobatni rivojlantirish, kapital bozorining imkoniyatlarini kengaytirish va fiskal–monetar uyg'unlikni yanada mustahkamlash muhim omil sifatida qaraladi.

Umuman olganda, 2020–2024-yillar O'zbekistonda pul–kredit siyosatini modernizatsiya qilish jarayoni sifatida e'tirof etiladi. Bu davrda Markaziy bank faoliyati xalqaro standartlarga bosqichma-bosqich yaqinlashtirilib, narxlar barqarorligi, shaffoflik va prognozlash tamoyillari iqtisodiy siyosatning markaziy yo'nalishiga aylandi. Natijada, inflyatsion targetlash rejimining to'liq joriy etilishi uchun zarur nazariy va amaliy asoslar shakllandi.

O'zbekiston iqtisodiyotida monetar siyosatning samaradorligi asosan transmissiya mexanizmlari orqali namoyon bo'ladi. Ushbu mexanizmlar Markaziy bank qarorlarining real sektor, narxlar darajasi, investitsiya jarayonlari va iste'mol xulq-atvoriga ta'sirini belgilaydi. Xalqaro tajriba kuchli transmissiya tizimi mavjud mamlakatlarda monetar siyosat qisqa muddatda ham kutilgan natijalarni berishi, iqtisodiy o'sish va inflyatsiya jarayonlarining muvozanatda saqlanishini ko'rsatadi (IMF, 2023). O'zbekiston sharoitida asosiy transmissiya yo'nalishlari sifatida foiz stavkalari, kredit, valyuta kursi va kutilmalar kanallari shakllangan bo'lib, ularning har biri monetar siyosatning real sektorga o'tish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Foiz stavkalari kanali Markaziy bankning asosiy stavkasidagi o'zgarishlar iqtisodiyotdagi kredit narxiga, investitsiya hajmiga va umumiy talabga qanday ta'sir etishini ifodalovchi mexanizm sifatida qaraladi. 2020–2024-yillar davomida qayta moliyalash stavkasining 15 foizdan 14 foizgacha pasaytirilganiga qaramay, tijorat



banklarining o'rtacha kredit foiz stavkalari 20–23 foiz diapazonida saqlanib qolgan (CBU, 2024). Ushbu tafovut foiz siyosatining real sektorga uzatilish darajasi hali to'liq shakllanmaganini anglatadi. Kredit resurslari qiymatining nisbatan yuqoriligi, banklararo bozor hajmining cheklanganligi va kapital bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi mazkur kanal samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi (1-jadval).

1-jadval. Markaziy bank asosiy stavkasi va tijorat banklari kredit foiz stavkalari o'rtasidagi farq dinamikasi keltirilgan²


Yil	Markaziy bank asosiy stavkasi (%)	Tijorat banklari o'rtacha kredit foizi (%)	Farq (foiz punkt)
2020	15,0	23,1	8,1
2021	14,0	22,5	8,5
2022	14,0	21,9	7,9
2023	14,0	20,7	6,7
2024	13,5	19,8	6,3

Ushbu jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, Markaziy bank asosiy stavkasining pasayishi kredit foiz stavkalariga nisbatan sekin uzatilmogda. Bu holat pul–kredit siyosatining real sektor darajasigacha yetib borish mexanizmi izchil shakllanib borayotgan bo'lsa-da, uning to'liq ishlashini ta'minlash uchun qo'shimcha institutsional kuchaytirish talab etilishini anglatadi.

2. Kredit kanali

Kredit kanali iqtisodiyotda qarz mablag'laridan foydalanish imkoniyatlari, moliyaviy vositachilik jarayonlari va bank tizimi likvidligi orqali ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston iqtisodiyotida ushbu kanal so'nggi yillarda sezilarli faollashgan, chunki bank tizimi aktivlari 2020–2024-yillar oralig'ida qariyb 1,8 barobar oshgan. CBU ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda tijorat banklarining umumiy kredit portfeli 305 trillion so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil yakuniga kelib ushbu ko'rsatkich 545 trillion so'mga yetgan. Ushbu dinamik o'sish banklar tomonidan iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirish imkoniyatlarining kengayganini anglatadi.

Shu bilan birga, kreditlarning 55 foizdan ortiq qismi davlat ishtirokiga ega banklar tomonidan shakllantirilayotgani bozorda resurs taqsimotining to'liq raqobatga asoslangan mexanizmlari izchil shakllanib borayotganini ko'rsatadi. Bu holat kredit kanali samaradorligini yanada kuchaytirish uchun banklararo raqobatni rivojlantirish, xususi banklar ulushini oshirish va kapital bozorining institutsional salohiyatini mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekiston bank tizimi kredit portfeli o'sish dinamikasi³

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2024-yilgi hisobotlar
³ cbu.uz



Kredit kanali iqtisodiyotga pul–kredit siyosati ta'sirining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, tijorat banklarining kreditlash siyosati, foiz siyosati va risklarni boshqarish darajasi ushbu mexanizmning samarali ishlashini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, likvidlikni boshqarish instrumentlarini rivojlantirish, banklararo bozor mexanizmlarini takomillashtirish va xususiy banklar ulushining oshishi kredit kanalining samaradorligini sezilarli darajada kuchaytiradi.

3. Valyuta kursi kanali

Valyuta kursi kanali Markaziy bankning qarorlari eksport, import, kapital oqimlari va tashqi savdo balansini orqali iqtisodiyotga ta'sir etadigan mexanizm sifatida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda 2017-yilgi valyuta bozorining liberallashtirish milliy valyuta — so'mning talab va taklif asosida shakllanishiga zamin yaratdi. 2020–2024-yillar oralig'ida so'mning AQSH dollariga nisbatan kursi 10 450 so'mdan 12 850 so'mgacha pasayishi asosan tashqi savdodagi nomutanosibliklar va global narxlar dinamikasi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Markaziy bankning valyuta intervensiyalari hajmining izchil qisqarishi bozor tamoyillarining mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Valyuta kursi orqali inflyatsion bosimning yumshashi, eksport raqobatbardoshligining oshishi va import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishning kengayishi kuzatilmoqda.

4. Kutilmalar (expectations) kanali

Monetar siyosatning samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri — bu kutilmalar kanali. Ushbu kanal Markaziy bank qarorlari va kommunikatsion siyosatining iqtisodiy sub'yektlarning kelajakdagi inflyatsiya, foiz stavkalari hamda umumiy iqtisodiy faollik haqidagi qarorlariga qanday ta'sir etishini ifodalaydi. Aholi va biznes sub'yektlarining iqtisodiy qarorlari — jamg'arma, investitsiya yoki iste'mol jarayonlari — bevosita ularning shakllangan kutilmalariga tayanadi. Shu bois, Markaziy bankning aniq, izchil, ochiq va barqaror axborot siyosati inflyatsion kutilmalarni barqarorlashtirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida ushbu jarayon so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Markaziy bank tomonidan joriy etilgan kommunikatsion siyosat doirasida iqtisodiy ko'rsatkichlar, inflyatsion prognozlar va foiz stavkalariga doir ma'lumotlarning muntazam e'lon qilinishi iqtisodiy ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. 2021-yildan boshlab aholi va biznes kutilmalarini muntazam monitoring qilish amaliyoti yo'lga qo'yilib, inflyatsion kutilmalarni o'lchash tizimi takomillashtirildi. Bu yondashuv xalqaro tajribaga yaqinlashish bilan birga, monetar siyosat qarorlarini yanada asosli va ishonchli tarzda qabul qilish imkonini beradi (CBU, 2023).

Empirik kuzatishlar Markaziy bank qarorlari va bayonotlari izchil bo'lgan sharoitda iqtisodiy sub'yektlarning kutilmalari real makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga moslashishini va natijada inflyatsion bosimning kamayishini ko'rsatmoqda. Aksincha, kommunikatsion siyosatdagi noaniqliklar ishonchga ta'sir qilishi mumkin, shu sababli Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan strategik kommunikatsiya modeli — “forward guidance” yondashuvi — kutilmalar kanalining barqaror ishlashini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu yondashuv iqtisodiy agentlarga Markaziy bankning kelajakdagi siyosiy yo'nalishlari haqida oldindan ma'lumot berib, qaror qabul qilishdagi noaniqlikni kamaytiradi. Masalan, inflyatsiya maqsadlarining aniq belgilanishi va ularga erishish bo'yicha chora-tadbirlarning ochiq e'lon qilinishi bozor ishtirokchilarining iqtisodiy xatti-harakatlarini ushbu siyosatga moslashtirishi, natijada inflyatsion kutilmalarning “anchoring” holatiga — markaziy prognoz atrofida barqarorlashuviga olib keladi.

O'zbekistonning so'nggi yillardagi tajribasi shuni ko'rsatadiki, Markaziy bank kommunikatsiyasining tizimli yo'lga qo'yilishi inflyatsion targetlash tizimini samarali joriy etishga, iqtisodiy sub'yektlar ishonchini oshirishga va moliyaviy bozordagi barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, axborot oqimini chuqur tahlil qilish, media monitoring tizimlarini mustahkamlash va jamoatchilik bilan ikki tomonlama muloqotni jadallashtirish kutilmalar kanalining yanada mustahkamlanishiga yordam beradi. Iqtisodiy agentlar o'rtasida “inflyatsion kutilmalar indeksi”ni shakllantirish va ularning dinamikasini tahlil qilish tizimini joriy etish ham ushbu kanalning samaradorligini oshiradi.

Kutilmalar kanali pul–kredit siyosatining eng sezgir, shu bilan birga eng kuchli transmissiya mexanizmlaridan biridir. Uning ta'siri Markaziy bank qarorlarining to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy agentlarning psixologik va xulq-atvor reaksiyalariga yetib borishi orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli, Markaziy bankning doimiy axborot siyosati, prognozlarning aniqligi, kommunikatsion strategiyaning shaffofligi va siyosiy mustaqillik darajasi ushbu kanalning samarali ishlashini belgilovchi asosiy omillar sifatida e'tirof etiladi.

Yuqoridagi tahlillar O'zbekiston Respublikasida monetar siyosatning transmissiya mexanizmlari izchil shakllanib borayotganini ko'rsatadi. Hozirgi sharoitda Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul–kredit siyosati foiz stavkalari, kredit, valyuta kursi va kutilmalar kanallari orqali iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq ushbu kanallar faoliyatining samaradorligi o'zaro farqlanishi siyosatning to'liq ta'sirchanligini ta'minlash uchun tizimli islohotlarning davom ettirilishini talab etadi. Valyuta kursi kanali esa eng faol yo'nalishlardan biri bo'lib, milliy valyutaning bozor tamoyillari asosida shakllanishi eksport-import jarayonlarini muvozanatlashtirish va tashqi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Kutilmalar kanali so'nggi yillarda sezilarli faollashgan bo'lib, Markaziy bankning ochiq kommunikatsiyasi iqtisodiy ishonchni oshirishda muhim omilga aylangan. Mavjud imkoniyatlar bilan bir qatorda, “forward guidance” tizimini kengaytirish, kommunikatsion



ishonch indikatorlarini shakllantirish hamda iqtisodiy ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro muloqotni kuchaytirish ushbu kanal samaradorligini yanada oshiradi.

Umuman olganda, O'zbekistonning hozirgi monetar siyosat tizimi xalqaro amaliyotga mos yo'nalishda izchil rivojlanmoqda. Foiz, kredit va valyuta kanallarini integratsiyalagan kompleks yondashuv hamda kutilmalar kanalining to'liq shakllanishi pul–kredit siyosatining umumiy samaradorligini oshirmoqda. Bu esa uzoq muddatda inflyatsion targetlash tizimini to'liq joriy etish va iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash uchun mustahkam asos yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasida monetar siyosatning transmissiya mexanizmlari izchil shakllanib borayotganini va iqtisodiyotning bozor tamoyillari asosida modernizatsiya qilinishi bilan ushbu mexanizmlar samaradorligi bosqichma-bosqich kuchayayotganini ko'rsatadi. 2020–2024-yillar davomida Markaziy bank tomonidan amalga oshirilgan pul–kredit siyosati ustuvor ravishda narxlar barqarorligini ta'minlash, inflyatsion kutilmalarni boshqarish, foiz va valyuta mexanizmlarini takomillashtirish hamda moliya bozorining institutsional salohiyatini mustahkamlashga yo'naltirildi. Ushbu yondashuv makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotda talab va taklif muvozanatini saqlash hamda iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Foiz stavkalari kanalining nisbatan sekin ishlashi banklararo bozorning yetarlicha rivojlanmaganligini ko'rsatsa-da, Markaziy bank tomonidan foiz koridori va likvidlik boshqaruvi mexanizmlarining takomillashtirilishi ushbu kanal samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Kredit kanali iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda yetakchi o'rin tutib, bank tizimi aktivlarining sezilarli oshishi real sektorni moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu bilan birga, kreditlarning ma'lum qismi davlat ishtirokiga ega banklar ulushiga to'g'ri kelayotgani bozor raqobatini oshirish zaruratini ko'rsatadi.

Valyuta kursi kanali o'rta muddatda eng faol transmissiya yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib, milliy valyutaning bozor tamoyillari asosida aniqlanishi tashqi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamladi va eksport–import jarayonlarida muvozanatning yaxshilanishiga sabab bo'ldi. Kutilmalar kanali esa so'nggi yillarda eng tez rivojlanayotgan mexanizm sifatida maydonga chiqib, Markaziy bankning kommunikatsion siyosati iqtisodiy agentlar ishonchini mustahkamlash, inflyatsion kutilmalarni barqarorlashtirish va pul–kredit siyosati natijalarining prognozlanish darajasini oshirishga yordam bermoqda.

Umuman olganda, O'zbekiston uchun monetar siyosatning optimal modeli — bu bozor mexanizmlariga asoslangan, Markaziy bankning institutsional mustaqilligini ta'minlaydigan, pul–kredit siyosatining ta'sir kanallarini uyg'unlashtiradigan va iqtisodiy agentlar ishonchiga tayangan tizimdir. Mazkur model inflyatsion targetlash rejimini to'liq joriy etish, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash va makroiqtisodiy xavflarni samarali boshqarish uchun mustahkam nazariy–amaliy asos yaratadi. Uzoq muddatli istiqbolda bunday yondashuv O'zbekistonning ochiq, barqaror va raqobatbardosh iqtisodiy tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni (2017). Valyuta siyosatini liberallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF–5177-son, 2-sentabr. <https://lex.uz/docs/-3326421>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori (2020). 2021–2023-yillarda O'zbekiston Respublikasi pul–kredit siyosatini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida. PQ–4886-son, 12-noyabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2020). O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida. O'RQ–637-son, 11-noyabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). Pul–kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari – 2024. Toshkent: CBU.
5. Vahobov, A. (2018). Pul–kredit siyosatining milliy iqtisodiyotga ta'siri. O'zbekiston Fanlar akademiyasi jurnali, 4(2), 45–56.
6. Zoyirov, Sh. (2020). Banklararo likvidlik bozori va foiz siyosatining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri. Iqtisodiy tadqiqotlar, 3(1), 22–34.
7. Saidova, N. (2021). Inflyatsion targetlash sharoitida fiskal va monetar siyosat uyg'unligi. Moliyaviy barqarorlik jurnali, 5(3), 12–27.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>